O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
KATTAQO‘RG‘ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
BUYRUQ

20 avgust 2025 yil. **3 -Ub** **Kattaqo‘rg‘on sh**

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika institutida tenglik, kamsitmaslik, munosib mehnat va xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirish maqsadida

BUYURAMAN

1. Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika institutida tenglik, kamsitmaslik, munosib mehnat va xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirish bo‘yicha Nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Barcha prorektorlar va rektor maslahatchilari hamda aloqador bo‘limlar rahbarlariga:

- Institutda xodim va talabalarni qadr-qimmati, teng huquq va imkoniyatlar, kamsitmaslik, tazyiq va ta’qibga murosasiz munosabat tamoyillarini ta’minlash, ayollarning manfaatlarini himoya qilish, xavfsizligini ta’minlash va ularni qo‘llab-quvvatlash Nizomga asosan ta’minlansin.

3. Yo‘riqnoma ijrosi bo‘yicha nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman.

Rektor **SH.R.Urakov**

“TASDIQLAYMAN”

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
rektori _____ SH.R. Urakov

2025-yil 20-avgust

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika institutida tenglik, kamsitmaslik, munosib mehnat va xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirish bo‘yicha NIZOM

Ushbu Nizom Institutda professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalarning teng huquqliligini ta’minlashga qaratilgan. Nizomda xodim va talabalarni qadr-qimmati, teng huquq va imkoniyatlar, kamsitmaslik, tazyiq va ta’qibga murosasiz munosabat tamoyillarini ta’minlash, ayollarning manfaatlarini himoya qilish, xavfsizligini ta’minlash va ularni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratiladi. Nizom mehnat, ta’lim, ilmiy faoliyat, boshqaruv va xizmatlardan foydalanish qoidalarini, shuningdek, murojaatlarni ko‘rib chiqish va ijroni kuzatish tartibini belgilaydi.

I bob. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika institutida (keyingi o‘rinlarda – Institut deb yuritiladi) xodim va talabalarni qadr-qimmati, teng huquq va imkoniyatlar, kamsitmaslik, tazyiq va ta’qibga murosasiz munosabat tamoyillarini ta’minlash tartibini belgilaydi.

1.2. Nizom xodimlar, professor-o‘qituvchilar, rahbarlar, talabalar, magistrantlar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, amaliyotchilar, ko‘ngillilar, abituriyentlar, tinglovchilar, ochiq ta’lim dasturlari qatnashchilari va tashrif buyuruvchilarga tatbiq etiladi.

1.3. Nizom ishga qabul qilish, mehnat shartlari, ish haqi, lavozimda o‘sish, baholash, malaka oshirish, ilmiy faoliyat, ta’limga qabul, o‘qitish, baholash, stipendiya, turar joy, amaliyot, talabalar hayoti, xizmatlardan foydalanish va institut bilan bog‘liq barcha rasmiy hamda norasmiy munosabatlarni qamrab oladi.

1.4. Nizomning asosiy maqsadi - bevosita va bilvosita kamsitish, ta’qib, tazyiq, zo‘ravonlik, shahvoniy shilqimlik, qasos olish va boshqa nomaqbul xatti-harakatlarning oldini olish, sodir bo‘lgan holatlarga tezkor, xolis va maxfiy munosabat bildirish, jabrlangan hamda xabar bergan shaxslarning huquqlarini himoya qilish hisoblanadi.

1.5. Nizom O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan huquq va kafolatlarni cheklamaydi.

1.6. Institutda tenglik siyosati faqat jinslar tengligi bilan cheklanmaydi. Qonun bilan taqiqlangan barcha kamsitish asoslari, shuningdek, shaxsning qadr-qimmati, xavfsizligi va teng ishtirokiga ta’sir qiluvchi boshqa holatlar hisobga olinadi.

1.7. Qonuniylik, tenglik, inson qadr-qimmati, kamsitishga murosasizlik, jabrlanuvchi xavfsizligi, maxfiylik, xolislik, aybsizlik prezumpsiyasi va adolatli

tartib, qasos olishdan himoya, murojaatlarning qulayligi, hisobdorlik, inklyuzivlik va shaffoflik.

1.8. Institut bilan bog‘liq o‘quv, ish, xizmat safari, amaliyot, yotoqxona, tadbir va raqamli munosabatlar qamrab olinadi. SHaxsning hayoti, fikr bildirish va ilmiy bahs erkinligi hurmat qilinadi.

1.9. Ochiq kurs, kutubxona, seminar va ta’limiy tadbirlardan foydalanish etnik kelib chiqish, din, nogironlik, migratsiya maqomi yoki jins sababli asossiz cheklanmaydi.

II bob. Huquqiy asoslar va tushunchalar

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” hamda “SHaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

2.1. **Kamsitish -** qonun bilan taqiqlangan belgi yoki asossiz mezon sababli shaxsga teng huquq va imkoniyatlarni bermaslik, huquqlarini cheklash yoki unga noqulayroq munosabatda bo‘lish.

2.2. **Bevosita kamsitish** - shaxsga muayyan belgi sababli taqqoslanadigan vaziyatdagi boshqa shaxsga nisbatan noqulay munosabatda bo‘lish.

2.3. **Bilvosita kamsitish** - bir qarashda betaraf qoida, talab yoki amaliyot muayyan guruhdagi shaxslarni asossiz ravishda nomutanosib noqulay holatga solishi.

2.4. **Ta’qib -** shaxsning himoyalangan belgisi, murojaati, e’tiqodi yoki boshqa qonuniy faoliyati bilan bog‘liq ravishda uni qo‘rqitish, kuzatish, bezovta qilish, tahdid qilish, yakkalab qo‘yish yoki unga bosim o‘tkazish orqali tahqirlovchi yoxud xavfli muhit yaratadigan xatti-harakat.

2.5. **Tazyiq va zo‘ravonlik** - qonunchilikda belgilangan jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy yoki boshqa shakldagi noqonuniy ta’sir va majburlash.

2.6. **SHahvoniy shilqimlik** - shaxs istamagan, jinsiy mazmundagi so‘z, imo-ishora, taklif, xabar, tasvir, tegish, yaqinlashish yoki boshqa xatti-harakatlar orqali uning qadr-qimmati va daxlsizligiga tajovuz qilish.

2.7. **Qasos olish** - kamsitish yoki ta’qib haqida xabar bergan, guvohlik qilgan, tekshiruvda qatnashgan yoki huquqini talab qilgan shaxsga nisbatan salbiy chora ko‘rish, tahdid, bosim ɯtkazish yoki mehnat shartlarini yomonlashtirish.

2.8. **Oqilona moslashtirish -** nogironligi, sog‘lig‘i, diniy yoki boshqa qonuniy ehtiyoji bo‘lgan shaxsning ta’lim yoki mehnat faoliyatida teng ishtirok etishi uchun ortiqcha va nomutanosib yuk keltirmaydigan zaruriy o‘zgartirishlar.

III bob. Tenglik va kamsitmaslik me’yorlari

3.1. Institutga ishga qabul qilish, vakant lavozimlarni e’lon qilish, nomzodlarni saralash, suhbatdan o‘tkazish, mehnat shartlarini belgilash, ish haqi va qo‘shimcha to‘lovlar, lavozimga tayinlash, rag‘batlantirish, malaka oshirish, ilmiy

grantlar, xizmat safarlari, attestatsiya, mehnat faoliyatini baholash va mehnat shartnomasini bekor qilishda faqat lavozim yoki ishning qonuniy, kasbiy talablariga asoslanadi. Din, diniy e'tiqod, jins, gender, yosh, qochoqlik yoki boshpana izlovchi maqomi ishga oid kasbiy mezonlarga aloqador bo‘lmagan hollarda qaror qabul qilishga salbiy ta'sir кщrsatmaydi.

3.2. Ta'lim jarayonida qabul, o‘qitish, dars jadvali, baholash, imtihon, stipendiya, akademik mobillik, ilmiy rahbarlik, amaliyot, talabalar turar joyi, intizomiy choralar va bitiruvda teng imkoniyat ta'minlanadi.

3.3. Kamsitish - jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy yoki oilaviy holati, yashash joyi, dini yoki diniy e'tiqodi, dunyoqarashi, nogironligi, sog‘lig‘i, homiladorligi, onalik yoki ota-onalik holati, kasaba uyushmasiga a'zo bo‘lishi yoki bo‘lmasligi, fuqaroligi, migratsiya yoki qochoqlik yoki boshpana izlovchi maqomi asosida sodir etilishi mumkin emas. Mazkur ro‘yxat Institutning ichki himoya mezonlarini belgilaydi, qonunchilikda bevosita ko‘rsatilgan asoslar va huquqiy oqibatlar amaldagi qonunchilik hujjatlar bilan belgilanadi.

3.3.1. Institut rahbariyati xodim yoki ta'lim jarayoni ishtirokchisini ishga qabul qilish, mehnat shartlari, kasbiy rivojlanish, baholash, lavozimda o‘sish, ilmiy faoliyat yoki ta'lim olishda noqulay munosabatga, tahqirga, ta'qibga yoki zo‘ravonlikka uchrashiga yo‘l qo‘ymaydi. Ushbu qoida institutning xavfsiz va hurmatga asoslangan muhit yaratish bo‘yicha ichki majburiyati hisoblanadi va u O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan huquq va vakolatlarni o‘zgartirmaydi.

3.3.2. **Diniy e'tiqod va vijdon erkinligi.** Institutda xodimning dini e'tiqodi yoki e'tiqodga ega emasligi, diniy marosimlarda qatnashishi yoki qatnashmasligi sababli unga nisbatan bosim, haqorat, majburlash yoxud kasbiy imkoniyatlarni asossiz cheklash taqiqlanadi. Ishga qabul qilish va mehnat faoliyatini baholashda diniy mansublik so‘ralmaydi.

3.3.3. Diniy ehtiyojlar bilan bog‘liq tashkiliy yechimlar xodimning murojaati asosida ish jarayonining uzluksizligi, mehnat xavfsizligi, boshqa xodimlarning huquqlari va qonunchilik talablarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqiladi. Bunday yechimlarga, imkoniyat doirasida, ish jadvalini muvofiqlashtirish, tanaffus vaqtini kelishish yoki kiyinishga oid qonuniy ehtiyojlarni ko‘rib chiqish kirishi mumkin. Institutda hech bir xodim diniy amaliyotni bajarishga yoki undan voz kechishga majburlanmaydi.

3.3.4. Institutda ayol yoki erkak, homiladorlik, ota-onalik yoki oilaviy majburiyatlar sababli ishga qabul qilish, ish haqi, vazifalar taqsimoti, malaka oshirish, rahbarlik lavozimlariga nomzodlik va mehnat shartlarini belgilashda asossiz farqlash taqiqlanadi. Bir xil yoki teng qiymatli mehnat uchun haq to‘lashda qonuniy mezonlarga asoslaniladi.

3.3.5. **Yoshga doir kamsitish.** Xodimni ishga qabul qilish yoki qabul qilmaslik, lavozimga ko‘tarmaslik, malaka oshirishdan chetlatish, mehnat shartlarini yomonlashtirish yoki ishdan ketishga undash faqat uning yoshi bilan izohlanishi mumkin emas. Yoshga oid cheklov faqat qonunchilikda belgilangan yoki muayyan ishning obyektiv va zarur kasbiy talabi bilan asoslangan hollarda qo‘llanadi. Tajriba, salohiyat va natijalar yoshga doir taxminlardan ustun mezon sifatida baholanadi.

3.3.6. **Qochoqlik, boshpana izlash yoki majburiy ko‘chish bilan bog‘liq maqom.** Institutda qochoq, boshpana izlovchi, vaqtincha himoyaga muhtoj, fuqaroligi bo‘lmagan yoki majburiy ko‘chishga uchragan shaxsni maqomi, kelib chiqishi yoki shu maqom haqidagi taxminlar sababli haqoratlash, tahqirlash, ta’qib qilish yoki asossiz ravishda kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ishga qabul qilishda shaxsning O‘zbekiston hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi va zarur hujjatlari qonunchilikka muvofiq o‘rganiladi, bunday tekshiruv barcha tegishli nomzodlarga bir xil, xolis va maxfiy tartibda amalga oshiriladi.

3.3.7. Qochoqlik yoki boshpana izlashga oid ma’lumotlar maxfiy va ehtiyotkorlik bilan tahlil qilinadi. Xodimdan ish vazifasini bajarish yoki qonuniy rasmiylashtirish uchun zarur bo‘lmagan shaxsiy, siyosiy qarash, diniy e’tiqod yoki xavfsizlikka oid tafsilotlarni oshkor etish talab qilinmaydi. Ma’lumotlar faqat qonuniy asos va zarur hajmda talab etiladi.

3.3.8. Ish joyida kamsitish nafaqat rahbarning bevosita qarori, balki hamkasblarning haqoratli munosabati, guruhdan chetlatish, tahdid, masxara, noxolis topshiriq va vazifalar taqsimoti, ish natijasini asossiz past baholash yoki shikoyat qilgan xodimga bosim o‘tkazish shaklida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar keyingi boblarda belgilangan tartibda yoritib berilgan.

3.3.9. Xodimlar bo‘limi vakant lavozim e’lonlari, lavozim yo‘riqnomalari, suhbat savollari va tanlov mezonlarini ko‘rib chiqib, ishga aloqador bo‘lmagan talablar, stereotiplar va nomzodning dini, jinsi, yoshi, qochoqlik maqomiga doir asossiz savollarni chiqarib tashlaydi. Tanlov natijalari oldindan belgilangan mezonlar va hujjatlashtirilgan baholash tizimi asosida rasmiylashtiriladi.

3.4. Institut jinsiy, irqiy, milliy, diniy yoki boshqa stereotiplarga asoslangan qarorlar, haqoratli iboralar, tahqirlovchi tasvirlar, kamsituvchi reklama va o‘quv materiallaridan foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi.

3.5. Baholash oldindan ma’lum, xolis va ish yoki ta’lim natijasiga tegishli mezonlarga asoslanadi. Teng imkoniyat shaxsga zarur qonuniy moslashtirishni rad etib, barcha uchun mutlaqo bir xil sharoit qo‘llashni anglatmaydi. Moslashtirish baholashning asosiy kompetensiyasini bekor qilmaydi.

3.6. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun jismoniy muhit, axborot, raqamli platformalar, o‘quv materiallari va baholash jarayonida oqilona moslashtirish ko‘rib chiqiladi. Moslashtirish shaxsning roziligi va ehtiyojiga muvofiq belgilanadi.

3.7. Institutda homiladorlik, onalik, otalik yoki oilaviy majburiyatlar sababli xodim yoki talabaga nisbatan salbiy munosabat, asossiz cheklov yoki imkoniyatlardan mahrum etish taqiqlanadi.

3.8. Institut tenglikka erishish uchun qonunchilikka muvofiq ijobiy choralar, maqsadli qo‘llab-quvvatlash, mentorlik va inklyuziv dasturlarni joriy qilishi mumkin.

3.9. Institutga ishga qabul qilishda, tanlov va lavozimga ko‘tarishda ishga aloqador bo‘lmagan oilaviy reja, homiladorlik yoki shaxsiy hayotga oid ortiqcha savollar berilmaydi. Ish haqi va imkoniyatlardagi asossiz tafovutlar yillik tahlil qilinadi va asosli farqlar hujjatlashtiriladi.

3.10. Qabul, grant, stipendiya, talabalar turar joyi va mobillik tanlovlarida qonuniy mezonlar va shikoyat yo‘li e’lon qilinadi. Guruh yoki shaxsga noqonuniy cheklov qo‘ygan ichki qoida qayta ko‘rib chiqiladi.

3.11. Nogironligi bo‘lgan yoki boshqa qonuniy ehtiyojli shaxs moslashtirishni erkin shaklda so‘rashi mumkin. Mas’ul shaxs bilan maslahatlashib, zarur axborotning eng kam hajmini oladi va o‘n ish kuni ichida yakka tartibdagi reja yoki asoslantirilgan javob beradi. Qonundagi qisqaroq muddat va shoshilinch xavfsizlik chorasi ustuvor hisoblanadi.

3.12. Moslashtirishga qulay xona, kirish-chiqish, o‘quv materiali, yordamchi texnologiya, asosli nazorat vaqti, ish jadvali yoki muloqot usuli kiradi. Tanlangan chora, mas’ul, xarajat manbai va qayta ko‘rish sanasi yozma belgilanadi. Rad etishda ko‘rilgan muqobillar va shikoyat yo‘li ko‘rsatiladi.

3.13. Ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun mentorlik, huquqiy-psixologik maslahat, tengdoshlar yordami va xizmatlarga yo‘naltirish tashkil etiladi. Belgilash mezonlari xolis bo‘ladi, guruhga mansublik haqidagi nozik ma’lumotlar majburiy ommaviy ro‘yxatga aylantirilmaydi.

IV bob. Ta’qib, tazyiq va shahvoniy shilqimlikka nisbatan taqiq

4.1. Institut hududida, yotoqxonada, xizmat safarida, amaliyot joyida, rasmiy tadbirda, masofaviy ta’lim va ish platformalarida, elektron pochta, messenjer va ijtimoiy tarmoqlarda institut bilan bog‘liq munosabat doirasida ta’qib va tazyiqning har qanday shakli taqiqlanadi.

4.2. Xatti-harakatlar, holatga qarab, Nizom buzilishi deb baholanishi mumkin. Masalan: tahdid, haqorat, kamsituvchi laqab, doimiy masxara, shaxsni ataylab chetlatish, qo‘rqitish, ta’qibkor xabarlar, istalmagan jismoniy tegish, jinsiy mazmundagi taklif yoki izoh, intim tasvirlarni tarqatish, shantaj, akademik yoki mehnat vakolatidan shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanish.

4.3. Institutda rahbar, o‘qituvchi, ilmiy rahbar yoki boshqa vakolatli shaxsning baho, imtihon, stipendiya, ishga qabul, shartnoma, lavozim yoki ilmiy imkoniyatni jinsiy yoki boshqa shaxsiy talabni bajarish sharti bilan bog‘lashi qat’iyan taqiqlanadi.

4.4. Rozilik erkin, ongli, aniq va qaytarib olinishi mumkin bo‘lishi kerak. Sukut, jumladan qo‘rquv, qaramlik, mastlik yoki vakolatlar nomutanosibligi sharoitidagi sukut rozilik sifatida talqin qilinmaydi.

4.5. Institut rahbariyati va xodimlari o‘z vakolatidan foydalanib shaxsni uchrashuvga, muloqotga, xizmatdan tashqari aloqaga yoki shaxsiy topshiriqqa majburlamasligi shart.

4.6. Ushbu Nizom bo‘yicha taqiqlangan xatti-harakatlar qonunchilikka muvofiq intizomiy, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik masalasini keltirib chiqarishi mumkin. Institut ichki tartibda huquqiy tasnifni vakolatli organlar o‘rniga belgilamaydi.

4.7. Raqamli ta’qib, shaxsiy ma’lumot yoki shaxsiy tasvirni roziliksiz tarqatish, soxta akkaunt orqali bosim, shantaj va shaxs nomidan tahqirlovchi ma’lumot yaratish haqidagi xabarlar ham baholanadi. SHaxsdan noqonuniy dalil yig‘ish yoki xavfli aloqani davom ettirish talab qilinmaydi.

4.8. Og‘ir tazyiq va zo‘ravonlikda jabrlangan shaxs yarashish, yuzlashtirish yoki shikoyatini qaytarib olishga majburlanmaydi. Norasmiy murosa xavfsizlik, ixtiyoriylik va qonuniylikka zid qo‘llanmaydi.

V bob. Murojaat qilish yo‘llari va dastlabki himoya

5.1. Xodim yoki talaba o‘zi jabrlangan, guvoh bo‘lgan yoki boshqa shaxs xavf ostida deb hisoblagan holat haqida xabar berishi mumkin. Murojaat og‘zaki, yozma yoki elektron shaklda beriladi.

5.2. Institut quyidagi murojaat yo‘llarini belgilaydi:

rektor yoki vakolatli prorector,

xodimlar bo‘limi,

yuriskonsult,

xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mas’ul,

psixolog xizmati,

fakultet/dekanat,

talabalar murojaatlari bo‘yicha mas’ul shaxs,

maxsus elektron murojaat manzili yoki anonim xabar yo‘li. Amaldagi aloqa ma’lumotlari institut veb-saytida e’lon qilinadi.

5.3. Murojaatni bevosita rahbarga berish xavfsiz yoki maqbul bo‘lmasa, murojaatchi boshqa ko‘rsatilgan yo‘lni tanlashi mumkin. Murojaat xatti-harakati ustidan shikoyat qilingan shaxsga yuborilmaydi.

5.4. Anonim xabar rasmiy murojaat sifatida ko‘rib chiqilishiga oid qonuniy cheklovlar saqlanadi. SHunga qaramay, undagi xavf haqidagi axborot profilaktik baholash va qonuniy tashabbus asosida tekshirish uchun qayd etiladi. Identifikatsiya yoki aloqa yo‘qligi javob berish imkoniyatini cheklashi mumkin.

5.5. Murojaat kelib tushgan sana qayd etiladi. Xavf darhol baholanadi, xavfsiz aloqa mavjud bo‘lsa, qabul qilingani uch ish kunidan kechiktirmay tasdiqlanadi. Mazmunan ko‘rib chiqish muddatlari belgilanadi, ichki tasdiq xabari qonuniy muddatni qayta boshlamaydi.

5.6. Dastlabki baholashda shaxsning xavfsizligi, tazyiqning davom etish ehtimoli, vakolatlar nomutanosibligi, qasos xavfi, voyaga yetmaganlar yoki zaif holatdagi shaxslar ishtiroki baholanadi.

5.7. Zarur hollarda vaqtinchalik choralar ko‘riladi. Ya’ni tomonlar o‘rtasidagi bevosita aloqani cheklash, boshqa o‘qituvchi yoki ilmiy rahbarni vaqtincha biriktirish, dars yoki ish jadvalini jabrlanuvchiga zarar yetkazmaydigan tarzda moslashtirish, xavfsiz joy yoki masofaviy ishtirok imkoniyati, yotoqxona yoki ish joyi bo‘yicha vaqtinchalik o‘zgartirish, psixologik va huquqiy yordamga yo‘naltirish.

5.8. Vaqtinchalik choralar murojaatchini jazolash, uning bahosini pasaytirish, lavozimini yoki daromadini kamaytirish, o‘qishdan chetlatish yoxud boshqa noqulay oqibatga olib kelmasligi lozim. Ayblanayotgan shaxsga nisbatan ham tekshiruv yakuniga qadar aybdor deb oldindan xulosa qilinmaydi.

5.9. Hayot yoki sog‘liqqa bevosita xavf, jinoyat alomatlari yoki qonunchilikda majburiy xabar berish nazarda tutilgan holatlar aniqlansa, vakolatli

organlarga murojaat qilish masalasi qonunchilik asosida hal etiladi. Ichki murojaat davlat organlariga murojaat qilish huquqini cheklamaydi.

5.10. Murojaat yozishga ko‘mak, nogironligi bo‘lgan shaxsga qulay ko‘rinish, zarur til yordami va xavfsiz aloqa ta’minlanadi. Maslahatchiga murojaat qilish shikoyatni o‘z-o‘zidan qo‘zg‘atmaydi, qonunda majburiy xabar berish holatlari tushuntiriladi.

5.11. Bevosita xavfda ichki kelishuv kutilmaydi. Tibbiy va boshqa vakolatli tezkor xizmatlarga yo‘naltirish tashkil etiladi. Himoya orderi va davlat xizmatlariga murojaat qilish bo‘yicha huquqiy axborot beriladi.

VI bob. Tekshiruv va qaror qabul qilish tartibi

6.1. Murojaatni ko‘rib chiqish uchun rektor buyrug‘i asosida xolislardan iborat komissiya yoki vakolatli mas’ul belgilanadi. Komissiya tarkibida yuriskonsult, xodimlar bo‘limi mas’uli, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mas’ul, psixologik xizmat yoki boshqa tegishli mutaxassislar bo‘lishi mumkin.

6.2. Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lgan shaxs jarayondan chetlashtiriladi. Dekan yoki boshqa rahbar haqidagi shikoyat unga bo‘ysunuvchi shaxsning yakka tekshiruviga berilmaydi. Rektor ustidan shikoyat vakolatli yuqori turuvchi tashkilotga qonuniy tartibda yuboriladi. Ichki qo‘llab-quvvatlash va dalillarni saqlash choralari davom etadi.

6.3. Tekshiruv doirasida murojaatchi, guvohlar va tegishli shaxslarning tushuntirishlari olinadi, hujjatlar, elektron yozishmalar, videoyozuvlar va boshqa qonuniy dalillar o‘rganiladi. Dalillarning qonuniy yo‘l bilan olinishi, yaxlitligi va saqlanishi ta’minlanadi.

6.4. Murojaatchi va tekshirilayotgan shaxsga o‘z qarashini bayon qilish, dalil taqdim etish va tegishli tartibda tushuntirish olish imkoniyati beriladi. SHaxsni takroran so‘roq qilish, ayblovchi yoki tahqirlovchi savollar, yuzlashtirishga majburlash va qayta ruhiy jarohat yetkazishdan saqlaniladi.

6.4.1. Tarafga xolislikka e’tiroz, vakil yoki qo‘llab-quvvatlovchi shaxsdan qonuniy doirada foydalanish va qarorga daxldor dalillarga munosabat bildirish imkoniyati beriladi. Bunda boshqa shaxslarning maxfiy ma’lumotlari himoya qilinadi.

6.5. Rasmiy ariza va shikoyatlar qonundagi muddatlarda, odatda o‘n besh kun, qo‘shimcha o‘rganish zarur bo‘lsa bir oygacha ko‘rib chiqiladi. Istisno uzaytirish faqat qonuniy asos, vakolatli qaror va murojaatchiga xabar berish bilan amalga oshiriladi. Mehnat xizmat tekshiruvi va intizomiy ish uchun maxsus me’yorlar qo‘llanadi, ularga avtomatik bir xil muddat belgilanmaydi.

6.6. Yakuniy xulosa dalillar, qo‘llangan ichki qoida va qonunchilikka tayangan holda yozma rasmiylashtiriladi. Xulosa sodir bo‘lgan holat, aniqlangan xavf, tavsiya etilgan chora va profilaktik takliflarni o‘z ichiga oladi.

6.7. Intizomiy chora faqat vakolatli shaxs tomonidan, qonunchilik va institutning ichki tartib qoidalari, mehnat va ta’lim tartiblariga muvofiq, protsessual kafolatlarga rioya etgan holda qo‘llanadi. Talabaga nisbatan intizomiy choralar tegishli ta’lim qoidalari va qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

6.8. Murojaat natijasi murojaatchiga maxfiylik talablarini hisobga olgan holda yetkaziladi. Boshqa shaxsga nisbatan qo‘llangan shaxsiy intizomiy ma’lumotlar qonuniy asos bo‘lmasa oshkor etilmaydi.

6.9. Murojaatchi yoki tekshiruvda ishtirok etgan shaxs xulosa yoki ko‘rilgan choralardan norozi bo‘lsa, rektor yoki yuqori turuvchi vakolatli tashkilotga, vakolatli davlat organlariga yoxud sudga qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilishi mumkin.

6.10. Qarorda aniqlangan dalil, tekshirilgan qoida, dalil bahosi, vakolatli chora, mas’ul, ijro muddati va shikoyat yo‘li bo‘ladi. Tasdiqlanmagan ayblov asosida intizomiy jazo berilmaydi, xavfsizlik choralari intizomiy jazo bilan tenglashtirilmaydi.

6.11. Psixologik xizmat ko‘mak beruvchi mustaqil vazifani bajaradi. SHu ish bo‘yicha maslahat bergan psixologning maxfiy qaydlari avtomatik komissiya materiali hisoblanmaydi; manfaatlar to‘qnashuvi va kasbiy maxfiylik tekshiriladi.

6.12. Murojaatni boshqa tuzilmaga yuborish uning qabul sanasi va qonuniy ijro muddatini yashirishga olib kelmasligi kerak. Qayta-qayta yo‘naltirish, shikoyat qilinayotgan shaxsga ko‘rib chiqish uchun berish yoki majburiy chetlatish taqiqlanadi.

VII bob. Murojaatchi, jabrlanuvchi va guvohlarni qasosdan himoya qilish

7.1. Kamsitish, ta’qib yoki zo‘ravonlik haqida vijdonan xabar bergan, guvohlik qilgan, maslahat so‘ragan yoki tekshiruvda ishtirok etgan shaxsga nisbatan qasos olish taqiqlanadi.

7.2. Qasos sifatida ishdan bo‘shatish bilan tahdid qilish, ish haqi yoki yuklamani asossiz kamaytirish, lavozimda o‘sishga to‘sqinlik qilish, baho yoki davomatga ataylab salbiy ta’sir ko‘rsatish, stipendiya yoki yotoqxona imkoniyatini asossiz cheklash, ilmiy rahbarlikdan mahrum qilish, guruhdan chetlatish, tahdid, haqorat qilish taqiqlanadi.

7.3. Qasos haqida xabar dastlabki murojaatdan alohida yoki unga qo‘shimcha tarzda ko‘rib chiqiladi. Xavf mavjud bo‘lsa, zudlik bilan vaqtinchalik himoya choralari belgilanadi.

7.4. Vijdonan berilgan, biroq tekshiruvda tasdiqlanmagan murojaatning o‘zi yolg‘on xabar hisoblanmaydi. Faqat bila turib, qasddan soxta ma’lumot berganlik holati dalillar bilan aniqlansa, qonunchilik va ichki tartib doirasida alohida baholanadi.

7.5. Institut murojaatchining o‘qishini davom ettirish, ish joyini saqlash, baholash va xizmatlardan foydalanish huquqlariga salbiy ta’sir bo‘lmasligini kuzatadi. Zarur hollarda murojaatdan keyingi 1, 3 va 6 oyda maxfiy kuzatuv amalga oshiriladi.

7.6. Ijrochi himoya choralarini shaxs bilan xavfsiz tarzda tekshiradi. Qasos gumonida baho, yuklama, turar joy, stipendiya va lavozim qarorlari asoslari qayta tekshiriladi. Bu qonuniy asoslangan baholash va boshqaruv qarorlarini bekor qilmaydi.

VIII bob. Maxfiylik va shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish

8.1. Murojaat, tibbiy holat, jinsiy hayot, oilaviy vaziyat, guvohlar va tekshiruv materiallariga oid ma’lumotlar cheklangan kirish tizimida saqlanadi.

8.2. Ma’lumotlar faqat murojaatni ko‘rib chiqish, xavfsizlikni ta’minlash, qonuniy majburiyatlarni bajarish va tegishli xizmatlarni ko‘rsatish uchun zarur holda qayta ishlanadi.

8.3. Kirish huquqlari lavozim va vazifaga ko‘ra cheklanadi. Ish materiallari shaxsiy messenjer, umumiy papka yoki nazoratsiz bulut xizmatiga joylanmaydi. Elektron himoya, kirish qaydi, qonuniy saqlash va yo‘q qilish hamda zarur lokalizatsiya talablari ta’minlanadi. Maxfiy ma’lumotni qayta ishlash uchun qonuniy asos qayd qilinadi.

8.4. Ochiq hisobotlarda murojaatlar soni va umumlashtirilgan natijalar berilishi mumkin, biroq jabrlanuvchi, guvoh yoki boshqa shaxsni aniqlashga imkon beruvchi ma’lumotlar e’lon qilinmaydi.

8.5. Maxfiylik mutlaq va’da sifatida talqin qilinmaydi. Hayot va sog‘liqqa xavf, voyaga yetmaganlarni himoya qilish yoki qonunchilikda belgilangan majburiy xabar berish holatlarida zarur ma’lumotlar vakolatli organlarga qonuniy tartibda taqdim etilishi mumkin.

8.6. Reyting yoki ochiq hisobot uchun ism, tibbiy hujjat, intim yozishma yoki ishning to‘liq nusxasi talab etilmaydi. Muvofiqlashtiruvchi faqat anonimlashtirilgan natijalarni beradi. SHaxsni bilvosita aniqlash mumkin bo‘lgan kichik guruhlar birlashtiriladi yoki oshkor qilinmaydi.

8.7. Axborot tarqalishi gumonida kirish cheklanadi, dalil saqlanadi va yuriskonsult hamda axborot xavfsizligi mas’uli qonuniy choralarni belgilaydi. SHaxsga xabar berish va vakolatli organ bilan ishlash tegishli huquqiy talab asosida amalga oshiriladi.

IX bob. Profilaktika, ta’lim va institutsional madaniyat

9.1. Institut barcha yangi xodimlar va talabalarni Nizom, murojaat yo‘llari va himoya tizimlari bilan tanishtiradi. Nizom institut veb-saytida e’lon qilinadi.

9.2. Rahbarlar, dekanlar, kafedra mudirlari, tyutorlar, yotoqxona mas’ullari, pedagoglar va talabalar bilan ishlovchi xodimlar uchun tenglik, kamsitmaslik, ta’qibni aniqlash, xavfsiz murojaatni qabul qilish va qasosning oldini olish bo‘yicha muntazam o‘quvlar tashkil etiladi.

9.3. Talabalar uchun huquqiy savodxonlik haftaligi, tyutorlik soatlari, seminarlar va elektron kurslar orqali huquqiy savodxonlik, o‘zaro hurmat, rozilik, raqamli xavfsizlik va guvoh sifatida xavfsiz yordam berish mavzulari yoritiladi.

9.4. O‘quv dasturlari, darsliklar, reklama va rasmiy kommunikatsiya materiallari gender stereotiplari hamda kamsituvchi mazmun nuqtayi nazaridan muntazam ko‘rib chiqiladi.

9.5. Institut talabalar va xodimlar uchun anonim iqlim so‘rovlari o‘tkazib, xavfsizlik, hurmat, kamsitish tajribasi, murojaat kanallariga ishonch va xizmatlardan foydalanish holatini baholaydi.

9.6. Hamkor, amaliyot bazasi va xizmat ko‘rsatuvchi bilan yangi yoki yangilanadigan shartnomada kamsitmaslik, xavfsiz xabar berish, hodisani bildirish

va qonuniy himoya choralari bo‘yicha bandlar nazarda tutiladi. Institut tashqi xodimga mehnat intizomiy jazosi bermaydi; shartnomaviy choralar va vakolatli organga yo‘naltirishni qo‘llaydi.

X bob. Mas’ul tuzilmalar

10.1. Har bir tarkibiy bo‘lm rahbari o‘z bo‘linmasida Nizom talablariga rioya etilishini ta’minlaydi va aniqlangan xavf yoki holat haqida belgilangan mas’ulga xabar beradi.

